

TRANSFORMATSION JARAYONLAR: XO‘JALIK YURITISH KLASTERI VA BU BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

ISANOV ABDUMAJIT PARMANOVICH
 Jizzax politexnika instituti mustaqil izlanuvchisi

isanov1972@mail.ru

tel: +998(90) 229-63-01

XOLIQOV DAVLAT RAXMATULLAEVICH

Jizzax Politexnika Instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi

davlatkholikov1985@mail.ru

tel: 998(95)440-03-61

Annotatsiya: Maqolada Amerika, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Ispaniya kabi xorijiy davlatlarda kooperatsiya asosida faoliyat olib borish natijasida xo‘jalik yuritishning klaster usulining natijalari, shuningdek, inqirozning oldini olish sifatidagi mazmun mohiyati tahliliy asosda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Yakuniy pirovard mahsulot, kichik sanoat kompaniyalari, sof mahsulot, kooperatsiya, klaster, kichik biznes, eksport, mayda tadbirkorlik, inqiroz, bankrot, venchur sarmoyasi.

Аннотация: Результаты применения кластерного метода управления экономикой в результате ведения деятельности на основе кооперации в зарубежных странах, таких как Америка, Япония, Великобритания, Италия, Германия, Франция, Голландия, Бельгия, Испания, а также в сущность предотвращения кризисов изложены на аналитической основе.

Ключевые слова: конечный продукт, малые промышленные предприятия, чистый продукт, кооперация, кластер, малый бизнес, экспорт, малый бизнес, кризис, банкротство, венчурный капитал.


Annotation: The results of the cluster method of economic management as a result of conducting activities on the basis of cooperation in foreign countries such as America, Japan, Great Britain, Italy, Germany, France, Holland, Belgium, Spain, as well as the essence of crisis prevention are described on an analytical basis.

Keywords: final product, small industrial companies, net product, cooperation, cluster, small business, export, small business, crisis, bankruptcy, venture capital.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 28-yanvarda imzolangan PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida mamlakat kelajagi klasterlar faoliyatida ko‘rinishi boshqa sohalar kabi alohida qayd qilingan. Shuning bilan birgalikda ustuvor yo‘nalishlarni mamlakatimizda ravnaq toptirish yuzasidan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini andozaviy tarzda o‘zlashtirish jihatlari xam Farmonda nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham hali bitta korxonona yoki tashkilotning yakka o‘zi yakuniy pirovard mahsulot yaratganligi kuzatilmagan. Ammo, hamjihat bo‘lib bir to‘plam doirasida mahsulot yaratish yoki xizmatlar ko‘rsatish ular iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Amerika sanoatida, masalan, hozirgi kunda 500 mingdan ortiq kichik firmalar faoliyat ko‘rsatmoqda va ular mahsulot umumiy hajmining taxminan 40 foizini ishlab chiqaradi. Ushbu ko‘rsatkichlar Fransiyada 45 foizni, Yaponiyada 50 foizdan ko‘pni tashkil qiladi. Yaponiyada kichik sanoat kompaniyalari sonining ko‘pligi (ularning soni 850 mingdan ziyod) iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlariga erishishga to‘sqinlik qilmadi. Mazkur mamlakat ishchilarining soni 300 kishigacha bo‘lgan xo‘jalik birliklari ulushiga (barcha korxonalarining 99,5 foizi) band aholining 71,7 foizi, sotuvning 51,8 foizi, qayta ishlovchi sanoatdagi sof mahsulotning 56,6 foizi to‘g‘ri keladi.

Ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda band aholining umumiy sonida kooperatsiya asosida faoliyat olib borayotgan xo‘jaliklar (100 kishigacha) ulushining barqaror o‘sishi



kuzatilmoqda. Bu nafaqat kichik biznes uchun an'anaviy bo'lgan sohalar (xizmatlar) ga tegishli, hatto iqtisodiyotning qayta ishlovchi sanoati kabi muhim tarmog'ida ham bunday xo'jaliklarning band aholining umumiy sonidagi ulushi: Buyuk Britaniyada so'nggi o'n yilliklarda 15,5 dan 22 foizgacha; Italiyada 53,1 dan 59,0 foizgacha; Germaniyada 12,5 dan 16,0 foizgacha; Fransiyada 23,6 dan 27,7 foizgacha; Gollandiyada 34,9 dan 36,6 foizgacha; Belgiyada 28,1 dan 28,9 foizgacha; Ispaniyada 56,4 dan 57,8 foizgacha oshdi.

Ispaniya kichik tadbirkorlikning mumtoz mamlakati hisoblanadi. Bu yerda jami korxonalarining 99,7 foizini tashkil qilgan kichik korxonalar yalpi sanoat mahsulotining 70 foizini, eksportning 75 foizini beradi, ularda iqtisodiy faol aholining 85 foizi ish bilan band. Bular, asosan, ishchilari soni 25 dan 100 kishigacha bo'lgan kichik korxonalaridir [1].

Yevropa Ittifoqida sanoat, xizmat ko'rsatish va savdo sohasida faoliyat ko'rsatuvchi, ishchilarining soni 500 kishidan kam bo'lgan klasterlar ulushiga korxonalar umumiy sonining 90 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Ularda Yevropa Ittifoqidagi barcha band aholining 65 foizi mehnat qiladi. Agar yirik korxonalar ishchilar sonini qisqartirsa, kichik korxonalar yangi ish o'rinlari yaratadi.

O'tgan asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar kabi Italiyada ham mayda tadbirkorlar bandlik siyosatidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish, ishlab chiqarish tarkibini tezda tartibga solish, o'z mahsulotini bevosita iste'molchilarga yetkazish tarmoqlarini tashkil etish hisobidan sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining eng dinamik sektorini tashkil qildi.

Yuqorida zikr etilgan mamlakatlarda klasterlarning o'sish tendensiyasi hozir ham kuzatilmoqda. Biroq ayrim jihatlaridan (texnologik rivojlanishni jadallashtirish, bozorlarning globallashtirishini kuchaytirish) ular alohida faoliyat yuritadigan yirik korxonalariga qaraganda kam foyda keltiradi. Klasterlarni chet eldan moliyalash ular faoliyatidagi yangi xususiyat bo'ldi, bu korxonaning tashqi bozorga yo'naltirilishini kuchaytiradi (butun Italiya eksportining 40 foizini ishchilarining soni 300 kishidan ko'p bo'lmagan korxonalar beradi).

Odatda klasterlar faoliyatini rag'batlantirishning asosiy sababi kichik biznes sohasidagi yangi korxonalar har 5 tadan 3 tasi dastlabki olti yil ichida inqirozga yuz tutishidir. Lekin yirik korxonalar bilan klasterga birlashganlari mustahkamlanadi va bandlikni o'stiradi. Bankrotlikdan ko'riladigan yo'qotishlar katta emas, muvaffaqiyatsizlik esa, tadbirkorlar tomonidan mablag'ni u yerga sarflash kerak emasligi haqidagi axborot sifatida baholanadi. 2010-2020 yillarda Nyu-York shtatida 417 ming firmaning faoliyat ko'rsatishi samaradorligi tahlil qilindi. Natijada shu narsa ma'lum bo'ldiki, yirik firmalardan farqli ravishda kichik korxonalarda inqirozga uchrash ancha ko'p va mutaxassislar kelib ketishi ham yuqori. So'nggi yillarda mayda korxonalar ish o'rinlarining 30,8 foizini yo'qotishdi, shu bilan birga yirik firmalar uchun ushbu ko'rsatkich 14,6 foizni tashkil qildi [2]. Nyu-York shtatida 5 yil mobaynida ishchilarining soni 40 dan 100 kishigacha bo'lgan korxonalarining taxminan to'rt dan bir qismi bankrot bo'ldi, ayni paytda 5-10 ming kishi mehnatidan foydalangan yirik korxonalarining inqirozga yuz tutishi ko'rsatkichi 7 foizdan oshmadi.

Chet elda klasterlar rivojining tajribasi shundan dalolat beradiki, 2000-yillar va 2010-yillarning boshida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi ko'pchilik mamlakatlar ishbiarmon doiralarini ishlab chiqarishni o'zaro hamkorlik asosida tubdan tarkibiy qayta qurish yo'llarini qidirishga undovchi turtki bo'ldi [3].

AQSh dagi 2010-2020-yillarda yuz bergan tarkibiy inqiroz yangi texnologik tamoyillarga o'tish masalasini oldinga qo'ydi. Yirik korporatsiya doirasida ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish faoliyatining chuqur ixtisoslashuvi, texnik yangiliklar kiritish jarayonini keskin murakkablashtiradi, u ilgari yuzaga kelgan texnologiyani takomillashtirishga olib keladi. Bu venchur sarmoyasi asosida kichik klasterlarni tashkil qilish uchun debocha bo'ldi.

AQShda fan-texnika taraqqiyotining keskin rivojlanishi mashinalar, jihozlar, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari narxining tushishiga olib keldi. Bu birinchi galda, unchalik katta bo'lmagan boshlang'ich sarmoyaga ega bo'lgan (3 mingdan 10 ming dollargacha) tadbirkorlarga o'zaro sherikchilik asosidagi kichik va mayda firmalarni tashkil etish ikonini berdi.



Iqtisodiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, AQSh da korxonalar soni o'sishining aksariyat katta qismi aynan o'zaro sherikchilik asosidagi mayda, kichik firmalar sohasida kuzatildi. Ular 2016 yilda xususiy qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lmagan korxonalar umumiy sonining 90 foizidan ko'pini tashkil qilib, asosan biznes, sog'liqni saqlash, ta'lim, yuridik va huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish sohasida faoliyat ko'rsatdi [4].

Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchilik kichik korxonalari uchun ishlab chiqarishning jadallashuvi, mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish hamda ish haftasini uzaytirish (yirik firmalardagiga qaraganda o'rtacha 3-5 soat ko'p) uchun jihozlarni qayta shaylashning yuqori tezligi xarakterlidir. Shu bilan birga jadal fan va texnika uchun ishlovchi mayda firmalar ishchilarga o'z ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi. Bu yerda yuqori malakali mutaxassislar, hamda yirik miqyosli ishlab chiqarish sharoitlariga moslashishi qiyin bo'lgan keksa yoshdagi xodimlarning boy tajribasidan foydalanish mumkin [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni.
2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. "Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi". Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b. // Berkinov B.B., Aynakulov M.A. "Production cooperation of small business enterprises with large enterprises". Monograph - Jizzakh.: 2004-114 p.
3. Aynakulov M.A., Abduxamidov E.M. Normativno-pravovaya baza integratsionnix otnosheniy hozyaystvuyushix sub'ektov. «Molodoy ucheniy». Mejdunarodniy nauchnyy jurnal. Spes vypusk Djizakskiy politexnicheskiy institut. 2016. № 7.2 (111.2) S. 48-50. // Aynakulov M.A., Abdukhamidov E.M. Normativno-pravovaya baza integratsionnykh otnosheniy hozyaystvuyushchikh subektov. "Molodoy uchenyy". International scientific journal. Spetsvypusk Dzhizak Polytechnic Institute. 2016. No. 7.2 (111.2) S. 48-50.
4. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Xatamov A.Ya. Qurilish majmuasida xo'jalik yuritish kooperatsiyasi va klasterining tavsiyaviy yo'nalishlari // in Volume 1, Issue 5 of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences in June 2021
5. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. 2020. № 2 (120). 91-94 b.

